



SURXONDARYO HUDUDIIY
TRANSPORT TIZIMLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING

IQTISODIIY GEOGRAFIK JIHATLARI

Omonturdiyev A.



Annotatsiya.

Maqolada Surxondaryo viloyatining transport hududiy tizimlarini rivojlantirish muammolari aniqlangan va ularni tahlil qilish asosida viloyatning transport majmuasini hududiy takomillashtirish hamda qishloq tumanlarining transport iqtisodiy hamda transport infratuzilmaviy salohiyatini yuksaltirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

Kalit so'zlar:

Surxondaryo viloyati, transport geografiyasi, transport majmuasi, hududiy tizimlar, transport infratuzilma, yuk tashish, yo'lovchi tashish, takomillashtirish.

Kirish.

Surxondaryo viloyatining transport geografik o'rni nafaqat lokal (ya'ni bevosita qo'shni davlat bilan) yoki mintaqaviy (Markaziy Osiyo), balki global (eng yaqin jahon dengiz savdo yo'llariga chiqish) darajada muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada viloyatning transport tranzit salohiyati katta. Hududining janub tomonidan bevosita Afg'oniston bilan chegaradoshligi mamlakatimizni eng yaqin dengiz portlariga (Karachi, Gvadar) chiqish imkoniyatini kuchaytiradi. Shu sababdan, mazkur viloyatni transport geografik tadqiq etish, nafaqat viloyatning balki O'zbekistonni ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida, uning tashqi iqtisodiy aloqalarini takomillashtirishda, jahon dengiz savdo yo'llariga bog'lanishida muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maqolada - Surxondaryo viloyati transport hududiy tizimlarini rivojlantirish muammolarini tahlil qilish asosida viloyatning transport majmuasini hududiy takomillashtirish hamda qishloq tumanlarining transport iqtisodiy hamda transport infratuzilmaviy salohiyatini yuksaltirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish o'rganiladi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalarni** hal qilish belgilangan:

- viloyat transport hududiy tizimlarini rivojlantirish muammolarini aniqlash va tahlil qilish;
- ishlanmalarini yaratish;
- qishloq tumanlarining transport iqtisodiy hamda transport infratuzilmaviy salohiyatini yuksaltirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Asosiy qism. Avvalo, viloyatning transport hududiy tizimlarini shakllanishi va rivojlanishiga to'squinlik qiluvchi muammolarni xususiyatiga ko'ra quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin [6;]: 1. Hududning tabiiy sharoiti bilan bog'liq (viloyat yer yuzasi tuzilishining murakkabligi; sel toshqinlarini ta'siri va b.). 2. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati bilan bog'liq (qishloq tumanlarining transport infratuzilma salohiyatining kuchsizligi; qishloq aholisiga transport xizmatlari ko'rsatish darajasining pastligi; qishloq tumanlarining transport iqtisodiy (ishlab chiqarish) salohiyatining pastligi; hududlar hamda qishloq aholi punktlarining transport qamrovi darajasining pastligi; hududlarning transport logistika imkoniyatlaridan foydalanishning sustligi; viloyatning transport tranzit salohiyatidan foydalanish darajasining kuchsizligi va uni yuksaltirish zarurligi).

Har qanday hududning transport tizimlarini shakllanishida avvalo uning yer yuzasi tuzilishi poydevor vazifasini o'tasa, ushbu hududda transport to'ring rivojlanishida esa aholi va aholi punktlari tizimi katta ahamiyatga ega. Bu borada, Surxondaryo viloyati mamlakatimizning tog'lilik koeffitsiyenti 70% [2;] bo'lgan eng janubiy viloyati sifatida alohida o'rin tutadi.

Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, Surxondaryo

viloyati transport majmuasining rivojlanishi va uning hozirgi hududiy tarkibi, avvalo viloyat hududining relyef xususiyatlariga, gidrografik to'riga, hamda aholi joylashuvi tizimlariga chambarchas bog'langan. Binobarin, viloyatning 14 ta qishloq tumanidan 4 tasi tekislik (Termiz, Angor, Qiziriq, Jarqo'rg'on), 4 ta tog'oldi (Muzrabot, Bandixon, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Denov), 5 tasi esa bevosita tog'li hududlarda (Oltinsoy, Boysun, Sherobod, Sariosiyo, Uzun) joylashgan. Bu o'z navbatida, transport to'ring zichligini turlicha bo'lishiga olib kelgan. Agarda, transport to'ri viloyatning tekislik qismida zich bo'lsa, aksincha tog'oldi va tog'li hududda siyrak. Binobarin, jami 14 ta qishloq tumanining 11 tasi (78 %) temir yo'llarga ega, aksincha, 3 ta qishloq tumanida (Oltinsoy, Qiziriq, Angor) temir yo'llar mavjud emas.

Viloyatning murakkab relyefga ega bo'lgan Sariosiyo tumanining Vochah, Karsh qishloqlari, Uzun tumanining Qurisoy, Oltinsoy tumanining G'o'txokin (Ketar), Boysun tumanining Alachapon, Qizilnavr, Qo'rg'oncha, Aylongar kabi qishloqlarida zamonaviy yo'l transport infratuzilmasi tashkil etilmagan.

Viloyatning asosiy transport tizimlari "janub - shimoli sharq" yo'nalishida joylashgan qishloq tumanlari (Termiz, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sho'rchi, Denov, Sariosiyo) hududida mujassam bo'lgan bo'lsa, bu borada tog'li qishloq tumanlarining salohiyati juda past. Agarda, mazkur qishloq tumanlari hududida yangi konlarning ochilishi, ishlab chiqarish obyektlarining barpo etilishi, shu bilan birga aholining tez ko'payib borishi, shuningdek ushbu hududlarda turistik-rekreatsion salohiyatdan foydalanishni yildan yilga kuchayishi, o'z navbatida transport infratuzilmasini yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Viloyat hududida transportni rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi tabiiy omillardan biri - bu, sel yog'inlaridir. Jumladan, 2020 yil davomida 43 ta sel toshqinlari vujudga kelgan. Bular esa 12 ta hududda avtomobil (M41, M39, 4R107 va hakoza) yo'llarini, temir yo'llarni (Qumqo'rg'on temir yo'l stansiyasi yaqinida, 2018, 2024 yy) ko'priklarni (5 ta) yaroqsiz holatga keltirgan (Boysun, Sherobod, Sho'rchi, Sariosiyo, Uzun tumanlarida). Shuningdek, 2018 yilda Qumqo'rg'on tumandagi Elobod, Ariqoshgan, Azlarsoy va Bog'aro qishloq aholi punktlaridagi yo'llar sel natijasida ishdan chiqqan. Seldan zarar ko'rgan aholiga 7 milliard 580 million so'm miqdorida mablag' ajratilgan. Shulardan kelib chiqib, ularni muntazam o'rganish, tog'li hududlarning sel xavfi monitoringini olib borish katta ilmiy amaliy ahamiyatga ega.

Qishloq tumanlarining transport infratuzilma salohiyatining kuchsizligi (yo'llar bilan ta'minlanganlik darajasi), ularni rivojlantirishdagi eng dolzarb muammolardan biridir. Shuningdek, tumanlarning transport infratuzilma salohiyati ularning tekislik (sug'orma yerlar),

tog' oldi va tog'li hududlarda joylashganligiga ko'ra bir biridan farq qiladi [2;].

Hududlarning transport infratuzilmasi bilan (yo'llarning uzunligi va zichligi bo'yicha) ta'minlanish darajasiga ko'ra ya'ni avtomobil yo'llari uzunligiga ko'ra Qumqo'rg'on, Qiziriq, Oltinsoy, Sariosiyo, Jarqo'rg'on, Uzun, Sho'rchi, Angor kabi tumanlar past salohiyatli, Termiz, Muzrabot, Denov tumanlari o'rta salohiyatli, Sherobod, Boysun tumanlari esa yuqori salohiyatli tumanlar bo'lsa, yo'llar zichligi bo'yicha past ko'rsatkichga ega tumanlarga Jarqo'rg'on, Sherobod, Bandixon, Boysun, Qumqo'rg'on, Uzun, Sariosiyo tumanlari (har 1 km² ga - 150 km gacha), o'rtacha tumanlarga esa Muzrabot, Termiz, Sho'rchi, yo'llar zichligi yuqori hududlarga esa Denov, Oltinsoy, Angor, Qiziriq kabi tumanlarni kiritish mumkin.

Transport kompleksining muhim vazifalaridan biri – bu, aholining transport xizmatlariga bo'lgan talab ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir [5;]. Ammo, bu borada viloyatda hududiy tafovutlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda, qishloq aholisiga transport xizmatlari ko'rsatish darajasining pastligi, qishloq joylarning transport infratuzilmaviy ahvolini yomonligi, zamonaviy talablarga javob bermasligi, ham dolzarb muammolardan hisoblanadi. Jumladan, 2022 yilda qishloq tumanlari bo'yicha avtomobil transportida tashilgan jami yo'lovchilar tarkibida Bandixon, Boysun, Qiziriq kabi tumanlarning umumiy ulushi juda past (viloyatda tashilgan jami 281 mln yo'lovchilarning 7%) ekanligi ko'zga tashlanadi.

Mazkur tumanlarning yo'lovchi tashish infratuzilmasi (avtoshohbekat va bekatlar), jamoat transporti vositalari (avtobuslar, mikroavtobuslar, yo'nalishli taksilar va x.k.) bilan ta'minlanish darajasi juda past. Hozirda viloyatda jami 16 ta avtoshohbekat bo'lishiga qaramay, Uzun, Sho'rchi, Oltinsoy, Bandixon, Qiziriq kabi tumanlarda avtoshohbekatlar mavjud emas. Ushbu tumanlarda qishloq aholisining kundalik transport aloqalarida jamoat transportining roli past (jamoat transporti yo'lga qo'yilmagan) va aholi asosan shasiy taksi xizmatlaridan foydalanishga majbur. Ushbu holat, ayniqsa tog'li hududlarda juda dolzarb ahamiyat kasb etadi [8;].

Viloyat transportini rivojlantirishning yana bir muammolaridan biri – bu, uning yuk tashish salohiyatiga aloqador bo'lib, bu borada, qishloq tumanlarining salohiyati juda past.

Viloyat qishloq tumanlarining avtomobil transportida 2022-yilda tashilgan yuklar hajmiga ko'ra kuchsiz tumanlari qatoriga Bandixon (1.4 mln t), Uzun (1.9 mln t), Qiziriq (2.1 mln t), Boysun (2.8 mln t), Oltinsoy (3.2 mln t), Angor (3.2 mln t), Muzrobod (3.3 mln t) kabilar kiradi. Shuningdek, yuk tashish dinamikasida 2010 yilda eng past o'rinlarni Uzun, Qiziriq, Oltinsoy, Angor, Boysun, Muzrobod, Qumqo'rg'on, Termiz, Sherobod tumanlari egallagan bo'lsa (1,5 mln tonnadan kam), 2022 yilda - Bandixon, Uzun, Qiziriq, Boysun, Oltinsoy, An-

gor, Muzrobod tumanlari past ko'rsatkichlarga ega (4,0 mln tonnagacha). Bunga, avvalo hududlarning transport geografik o'rnini bir muncha noqulayligi hamda ishlab chiqarish salohiyatining pastligi bilan izohlanadi. Ko'rib turganimizdek, 2010-2022 yillar orasida Qumqo'rg'on, Termiz, Sherobod tumanlari yuk tashuvlari bo'yicha past salohiyatli tumanlardan o'rta guruhga ko'tarilgan. Bunda, Toshg'uzor-Boysun- Qumqo'rg'on temir yo'lining ishga tushirilihi, yangi sanoat korxonalarining barpo bo'lishi (Sherobod sement zavodi), mamlakatning Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan transport savdo aloqalarining kengayishi, kabilar yuk tashuvlarni ortishiga ta'sir ko'rsatgan.

Hudud transport majmuasini rivojlanishida, uning aholi joylashuvi tizimlari bilan o'zaro uyg'unligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Boysun, Sariosiyo, Uzun, Sherobod, Qumqo'rg'on kabi tumanlar va qishloq aholi punktlarining transport qamrovi darajasining pastligi kuzatiladi. Ushbu tumanlar hududining yirikligi va tog'liligi hamda transport yo'llari siyrakligi tufayli transport qamrovi past darajadadir.

Yuqoridagilar bilan birga, viloyatda joylashgan 923 ta (jami QAPning 95,0%) qishloq aholi punktlaridan tuman markaziga borish uchun qancha vaqt sarflanishi, qishloq tumanlari kesimida google map, google earth hamda yandex ilovalari yordamida o'rganildi. Bunda, Boysun, Sariosiyo, Uzun, Sherobod kabi tog'li tuman aholi punktlari tuman markazi bilan bog'lanish darajasi past ekanligi yoki noqulay transport joylashuviga ega ekanligi aniqlandi.

O'rganishlar davomida, ba'zi yirik aholi punktlari o'zaro transport infratuzilmalari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanmaganligini hamda transport infratuzilmasi oqilona joylashtirilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Natijada, aholiga transportning noqulayligi hamda transport xarajatlari ortishiga olib kelgan. Ularning yechimi sifatida yaqin masofada bog'lovchi yo'llarni qurish hamda yo'l transport inshootlarini barpo etish, kabilar maqsadga muvofiqdir.

Gidrografik to'r, relyef va transport yo'llari bilan bog'liq bir nechta hududlar o'rganildi va ba'zilar kompleks geografik tahlil qilindi

Viloyatda avtotransportda qishloq aholi punktidan tuman markaziga borish uchun ketgan vaqt sarfi quyidagi vaqt intervallarida o'rganildi: 15 minutdan kam; 16-30 minut; 31-45 minut; 46-60 minut; 61-90 minut; 91 minutdan ko'p [90;]. Bu, o'z navbatida tuman markaziga nisbatan QAPlarning transport qulayligi darajalarini o'lchash imkonini beradi. Binobarin, aholining qishloq aholi punktidan tuman markazigacha transport qatnoviga sarflangan vaqt hajmining kattalashib borishi, o'z navbatida QAPlarning transport qulayligini pasayib borishini, aksincha holatda esa yuqorilab borishini ko'rsatadi.

Avtomobil transportida qishloq aholi punktidan tuman markaziga borish uchun ketgan vaqt sarfi

№	Qishloq tumanlari	Vaqt sarfi (minut)														Jami
		15 dan kam		16-30		31-45		46-60		61-90		91 dan ko'p				
		AP soni	Aholi soni	AP soni	Aholi soni	AP soni	Aholi soni	AP soni	Aholi soni	AP Soni	Aholi soni	AP soni	Aholi soni			
1	Oltinsoy	25	72561	24	85961	9	21038	2	4459					60	184019	
2	Angor	18	72198	21	65188									39	137136	
3	Boysun	6	46384	13	26717	7	9122	17	25636	3	2405	7	6808	52	117072	
4	Denov	55	252480	22	114830	5	6258	5	23882					117	399450	
5	Jarqo'rg'on	36	135450	28	67367	8	24071							72	226888	
6	Qiziriq	22	58633	23	51518	2	8702							48	118853	
7	Qumqo'rg'on	31	105332	20	74371	14	34597	23	29379					88	243679	
8	Muzrabod	23	52601	18	62919	4	26790	3	4828					58	147138	
9	Sariosiyo	61	137749	24	50514	5	4611	8	6940	17	9404	3	2172	118	211390	
10	Termiz	11	32297	10	21565	10	16381	3	10095					34	80338	
11	Uzun	35	86216	14	35418	6	18767	6	12124	7	6931	15	18950	83	178406	
12	Sherobod	28	99296	44	63238	12	15209	11	14860	10	8805			105	201408	
13	Sho'rchi	24	116732	24	88090	3	6671	2	1689					53	213182	
14	Bandixon	4	37532	9	41180									43	78712	
	Viloyat bo'yicha	399	1305461	334	848876	95	192217	80	133892	37	27545	25	27930	970	2743201	
	Jami o'rganilgan qishloq aholi punktlari soni (2022 yil holati bo'yicha)													923	2535921	

Jadval, muallif tomonidan <https://yandex.uz/maps/>, [google maps](https://google.maps), [google earth](https://google.earth) ilovalari asosida ishlab chiqildi.

Bu borada 1-jadvalni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, viloyat bo'yicha 41,1% QAPlari va ularning 51,9% aholisi tuman markaziga qatnashda 15 minutgacha vaqt



sarflaydi. Bunda, Angor, Denov, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Sho'rchi tumanlarining ko'rsatkichlari viloyatning o'rtacha ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori ekanligi bilan yaxshi imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatsa, aksincha tuman markazigacha 60 minutdan ortiq vaqt sarfi Boysun, Sariosiyo, Uzun, Sherobod kabi tog'li hududlarga ega bo'lgan tumanlarga to'g'ri keladi. Ular orasida, ayniqsa 91 minutdan (1,5 soatdan) ko'p vaqt sarfi Uzun, Boysun, Sariosiyo tumanlarida kuzatiladi. Jumladan, Uzun tumanida QAPdan tuman markazigacha 1,5 soatdan ko'p bo'lgan qatnov vaqti 18,0% QAPlarga (aholisi- 10,5%) to'g'ri kelsa, bu raqam Boysun tumanida 13,4% (5,8%) ni, Sariosiyo tumanida esa 2,5%ni (1,0%) tashkil qiladi. Bulardan ko'rinadiki, yer yuzasi ko'proq tog'li va tog'oldi bo'lgan tumanlarda qishloq aholi punktidan tuman markazigacha transport qatnoviga ko'p vaqt sarflanishi kuzatiladi. Bunday aholi punktlari, masalan Sariosiyo tumanidagi Nilu, Desaisurx, Debodom, Tojik qishloq, Changloq qishloqlari aholisi (har birida ming kishidan ko'p aholi istiqomat qiladi) tuman markaziga borish uchun 1 soatdan ortiq vaqt sarflasa, Uzun tumanidagi Oybulok (3374 kishi), Oq machit (3427 kishi), Majnuntol (2927 kishi) kabi qishloqlar aholisi tuman markaziga borish uchun o'rtacha 150 minutdan vaqt sarflaydi.

Yo'lovchi tashish intensivligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri aholining mayatniksimon migratsiyasi hisoblanadi. Ayniqsa, Termez shahridan Angor va Jarqo'rg'on tumanlariga, Denov shahridan Sariosiyo, Oltinsoy, Uzun tumanlariga yo'lovchilar oqimi ko'proq ekanligi kuzatiladi.

Transport xizmatlaridan foydalangan holda yo'lovchini ma'lum bir nuqtaga yetib borishi ko'p omillar bilan bog'liq hamda turlicha vaqt sarfini talab etadi. Masalan, masofaning uzoq yaqinligi, transport vositasining harakat tezligi, joyning relyefi va boshqa jihatlarga bog'liq.


Viloyat mamlakatimizni eng yaqin dengiz savdo yo'llariga (Pokistonning Karachi va Gvadar portlariga) tutashuvda ham ulkan transport tranzit strategik ahamiyatga ega. Ammo, uzoq yillar mobaynidagi mintaqadagi geosiyosiy vaziyat mavjud salohiyatdan real foydalanish imkonini bermay keldi. Shuni ham ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda qo'shni Afg'oniston bilan transport koridorlarini barpo qilish bo'yicha olib

borilayotgan ikki tomonlama ijobiy siljishlar, va ayniqsa Transafg'on transport koridorini (SHHT Samarqand sammiti, 2022-yil sentabr) barpo qilish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Mazkur yirik transport loyihalarining ishga tushirilishi, bevosita viloyat hududi bilan bog'langan bo'lib, kelgusida O'zbekistonning transport tranzit salohiyatini yuksaltiribgina qolmay, balki uning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvini tezlashtirishga zamin yaratadi. Bu borada, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev: "Surxondaryoning Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston bilan chegaradosh hududda joylashgani dunyo bozorlariga chiqishga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, xalqaro tranzit hudud sifatida yuk tashish ko'lamini kengaytirish, xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar eksportini keskin oshirish, xalqaro xizmatlar hajmini kengaytirish uchun bu yerda barcha sharoitlar yetarli", deb viloyatga katta baho bergan.

So'nggi yillarda mamlakatimiz yirik shaharlarida transport vositalarining harakati ortishi natijasida tirbandliklar yuzaga kelmoqda. Tirbandlik muammosi yildan yilga kuchayib bormoqda. Bu avvalo transport vositalarining harakat oqimi bilan chambarchas bog'langan. Viloyat avtomobil yo'llarida transport oqimini tahlil qilish va o'rganish davomida eng yuqori transport oqimi Termizda (M39) bir sutkada 32 ming, keyingi o'rinda Jarqo'rg'on shahrida (M41) 26 ming hamda Denov shahrida 21 ming avtotransport vositalari harakati kuzatilgan (1-rasm).

Viloyatning asosiy Termiz-Sariosiyo transport yo'nalishida o'sib kelayotgan ichki transport oqimini hisobga olgan holda, hududni kompleks o'rganish asosida xalqaro tajribaga mos "Termiz - Qumqo'rg'on" avtoban (pullik yo'l) loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu yo'l viloyatning shimoliy yirik shahar va tumanlarini uning markazi – Termiz shahri bilan o'zaro bog'lanishi vaqtini (30 daqiqaga) qisqartiradi, va shu bilan transport oqimi yuqori bo'lgan M41 (Termiz-Jarqo'rg'on-Qumqo'rg'on) avtomobil yo'liga muqobil yo'l infratuzilmasi vujudga keladi (1-rasm).



1- rasm. Surxondaryo viloyati avtomobil transporti oqimi xarita-sxemasi. Mualliflar tomonidan ArcGIS dasturiy ta'minoti asosida yaratilgan.

Pullik (avtoban) yoʻl loyihasini ishlab chiqishda Sariosiyo, Denov va Shoʻrchi tumanlarining aholi manzilgohlarini juda zichligi va transport oqimi aynan Qumqoʻrgʻon va Jarqoʻrgʻon tumanlari hududida koʻpayishi hisobga olindi. Transport oqimi ortgan hududlarda pullik asosda va davlat- xususiy sheriklik (DXSh) asosida avtomagistrallar (avtobanlar) yaratish dolzarbdir (1-rasm).

Xalqaro tajribaga koʻra, avtomagistrallar yirik aholi punktlari va maʼmuriy markazlar hududidan bevosita oʻtishi joiz emas. Ammo, Termiz-Sariosiyo magistral avtomobil yoʻli Jarqoʻrgʻon, Qumqoʻrgʻon, Shoʻrchi tumanlari markazlaridan kesib oʻtib, transport oqimining kattaligi esa muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu oʻz navbatida viloyatning transport tranzit jozibadorligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bularni oldini olish va viloyatning transport tranzit jozibadorligini oshirish maqsadida 4R101 (M41 yoʻliga parallell joylashgan) “Ismoiltepa-Chaqar” tranzit avtomobil yoʻlini qurish, zamonaviy yoʻl servis infrazuzilmasini barpo qilish maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

Ushbu tranzit yoʻl hududning asosiy janub-shimol yoʻnalishidagi ichki transport tranzit imkoniyatlarini yaxshilash va shu asnoda Oʻzbekiston-Tojikiston-Afgʻoniston davlatlarining oʻzaro xalqaro transport tranzit aloqalarini yuksaltirish imkonini beradi.

Taqqoslash uchun mavjud xalqaro yoʻl (M41 Ismoiltepa-Soʻfiyon) 3 ta qishloq tuman markazlarini, 14 shaharchani va 44 ta qishloq aholi punktlarini kesib oʻtadi⁶ yoʻl uzunligi esa 144 km ni tashkil qiladi. Ushbu mavjud yoʻlga muqobil boʻlgan Ismoiltepa-Chaqar (Eshonqishloq) tranzit yoʻli esa 8 ta shaharchani va 12 ta qishloq aholi punktlarini kesib oʻtadi. Yoʻlning umumiy uzunligi esa 135 km ga teng. Bunday loyihalarning amalga oshirilishi kelgusida viloyatning nafaqat ichki, yoki mintaqaviy, balki xalqaro transport logistika salohiyatini yuksaltirishga, va qolaversa Oʻzbekistonning janubiy yoʻnalishda ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda, mamlakatimizning eng qulay dengiz savdo yoʻllariga tutashuvida, va shu asosda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida muhim ahamiyatga ega boʻladi.

2-jadval

Ismoiltepa-Chaqar (Eshonqishloq) tranzit yoʻli loyihasi

Xalqaro (M41) va muqobil tranzit yoʻl kesib oʻtuvchi		Tumanlar kesimida transport oqimi (sutkada ming dona)	Mavjud xalqaro yoʻl kesib oʻtuvchi hududlar jami aholisi, ming kishi	Muqobil tranzit yoʻl kesib oʻtuvchi hududlar aholisi, ming kishi	1 soatda oʻtuvchi ogʻir yuk transport vositalari, bir sutkada dona*	Yoʻl uzunligi, km
qishloq tumanlari	tuman markazlari va qishloq aholi punktlari soni (QAP)					
Mavjud xalqaro avtomobil yoʻli (M41)						
Jarqoʻrgʻon	Jarqoʻrgʻon sh, 2 ta shaharcha va 11 ta QAP	26	57		249	144
Qumqoʻrgʻon	Qumqoʻrgʻon sh, 6 ta shaharcha va 10 ta QAP	18	82		150	
Shoʻrchi	Shoʻrchi shahri, 4 ta shaharcha va 11 ta QAP	10	83		96	
Denov	4 ta shaharcha va 12 ta QAP	15	42		75	
Sariosiyo	7 ta QAP	16	16		37	
Muqobil tranzit yoʻl (avtomobil)						
Jarqoʻrgʻon	1 ta shaharcha 4 ta QAP**	11		14	108	135
Qumqoʻrgʻon	3 ta haharcha**	9		19	134	
Shoʻrchi	1 ta haharcha** 4 ta QAP	8		12	41	
Uzun	3 ta shaharcha 4 ta QAP	21			62	

*Viloyat avtomobil yoʻllari boshqarmasi maʼlumotlari asosida (2023).

**Muqobil tranzit avtoyoʻl tuman markazlaridan kesib oʻtmaydi.



Xulosa.

Hozirgi davrda har qanday hududning (mamlakatning) ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishini transportsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ammo, bu borada hududning transport infratuzilma hamda transport iqtisodiy salohiyatining sustligi, transport xizmatlarining qoniqarsiz ahvoli asosiy muammolardan sanaladi.

Surxondaryo viloyatining transport infratuzilma salohiyati haqida gapirilganda, eng avvalo uning markazdan ancha yiroqda joylashganligini, boshqa mintaqalar bilan transport integratsiyalashuvi darajasining sustligini, transport iqtisodiy salohiyatini kuchsizligini, bunda ayrim qishloq tumanlarining transport majmuasi to'liq shakllanmaganligini, transport xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasi zamon talablariga javob bermasligini ta'kidlash joizdir.

Agarda, viloyatning ulkan agrar ishlab chiqarish, demografik va ayniqsa mineral xomashyo hamda tranzit salohiyatini e'tiborga olinsa, buning ustiga uning uchta xorijiy mamlakat bilan bevosita tutasha olish imkoniyatini hisobga olinsa, uning kelajakda O'zbekistonning janubiy "darvozasi"ga, Termiz shahri esa "xalqaro transport logistika habi"ga aylanishi uchun to'la asoslar mavjud. Buning uchun kelgusida viloyatning transport tizimini rivojlantirishda, uning hududiy tarkibini takomillashtirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- birinchidan, viloyatning transport infratuzilmasini hududiy jihatdan takomillashtirish, tumanlar transport to'ri va aloqalarini kengaytirish, logistika ob'ektlarini ko'paytirish, zamonaviy yo'l xo'jaligini shakllantirish, agrologistika salohiyatidan foydalanish, havo transportini modernizatsiya qilish, yangi transport yo'llarini barpo etish, temir yo'lni to'liq elektrlashtirish, aholi punktlari va tuman markazlari oralig'ida jamoat transportini yo'lga qo'yish, katta shaharlarda yashil transportni jadal joriy qilish;

- ikkinchidan, viloyatning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishida Transafg'on koridorini (temir yo'li) ishga tushirishi katta ahamiyatga ega. Mazkur yo'lning eng muhim jihati O'zbekiston Respublikasining Afg'oniston orqali Hind okeani portlari bilan bog'lovchi eng yaqin transport yo'lagi ekanligidir. Bunga eng avvalo Surxondaryo viloyati transport hududiy tizimlarini takomillashtirish orqali erishiladi.

Adabiyotlar

1. Мирзиев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.:Ўзбекистон, 2017. - 488 б.
2. Abdunazarov H.M., Umarova M.H. Surxondaryo viloyati tabiiy geografiyasi. O'quv qo'llanma, 1-qism. Termiz: Termiz davlat universiteti. 2023. -176 b.
3. Abdunazarov H.M., Umarova M.H., Esonov N.A. Surxondaryo viloyati geografiyasi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. 2-qism. O'quv qo'llanma.– Toshkent: Dimal, 2024. 260 b.
4. Frederick S., Filat Y, Martina reiser etc. The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia. Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D.: Johns Hopkins University-SAIS, 2007.– 514 p.
5. Nazarov M., Omonturdiyev A. Hududiy transport tizimlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari (Surxondaryo viloyati misolida) // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 55-jild. - Toshkent, 2019 – B.-84-88.
6. Бугроменко В.Н. Транспорт в территориальных системах. - М.: 1987-112 с.
7. Эрдонов М.Н., Омонтурдиев А.М. Сурхондарё вилояти транспорт географияси. Ўқув қўлланма. Termiz: Термиз давлат университети, 2022. – 161 б.
8. Абдимўминов Б.О. Сурхондарё вилояти рельефининг 3 улчамли моделини яратиш. Монография. Toshkent: Kitob nashr, 2023. - 169 б.
9. Хидиров Х. Ўзбекистонда транспорт соҳаси: натижалар ва муаммолар / С. Иноятова ва б. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. - 184 б.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "2022-2026 йилларда Сурхондарё вилояти ҳудудларини комплекс иқтисодий-иқтисодий ривохлантириш ва аҳоли турмуш даражасини янада яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар туфрисида"ги 245-сон қарори. 10.05.2022 й. URL:<https://lex.uz/docs/5998913>
11. <https://www.surxondaryoavtoyul.uz/> (Surxondaryo viloyati avtomobil yo'llari hududiy boshqarmasi ma'lumotlari).